



GAP STRUKTURASINI O‘ZGARTIRISH ASOSIDA PLAGIATLIKKA

YO‘L QO‘YISHNI BARTARAF ETISH

Safarova Gulshoda

TOSHD O‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,

Amaliy filologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

gulshodasafarova@4gmail.com

Annotatsiya: Tilni kompyuterlashtirish bevosita tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘liq. Bu o‘z navbatida lingvistik tahlillar yordamida katta dasturiy ta‘minotlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda mashina tarjimasi, matnlarni morfologik, sintaktik tahlil qiluvchi dasturlar ham shu yo‘nalish o‘laroq paydo bo‘lgan hosila mevadir. Antiplagiat dasturi esa ko‘pfunksiyali platforma bo‘lib, u plagiat holatlarini aniqlaydi. Ushbu maqolada esa antiplagiat dasturining xususiyatlari, parafraz turlari va gap strukturasining o‘zgarishi va gap modellarini tuzish haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Antiplagiat, NLP, kompyuter lingvistikasi, parafraz turlari, sinonimlar, qo‘shma gaplar sinonimiyasi.

Ma‘lumki, jahon tilshunosligida o‘tgan asrlardanoq til bilan bog‘liq muammolar kompyuter texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda yechila boshlagandi. Bu esa o‘z navbatida tilni qayta ishlovchi (NLP) dasturiy ta‘minotlarni yaratishni taqozo etardi. NLP dasturlarining yaratilishi tilshunoslarni mavjud ma‘lumotlar bazasini qoliplashtirib kompyuter o‘qiy oladigan shaklga keltirish bilan xarakterlanadi. Bu jarayon esa hali hanuz



dunyo tilshunosligi oldida to'liq yechilishi lozim bo'lgan masalalar qatoridan joy olib kelmoqda. Shu sababli ham NLP tarixida to'rt bosqich ajratib ko'rsatiladi.

1. Mashina tarjimasiga e'tibor qaratish
2. Sun'iy intellektning ta'siri
3. Mantiqiy-grammatik uslubga moslashish
4. Ko'p miqdordagi til bazasining ma'lumotlaridan foydalanish [Karen Spark Jons, 2001]

Yuqoridagi 4 bosqishda tilshunoslik yo'nalishida e'tiborli ishlar amalga oshirilib, natijada matnni avtomatik tushunish, mashina tarjimasi, matnni referatlash (gipermatnni asosiy mazmunni o'zida saqlagan minimatnga keltirish, ya'ni matn hajmini qisqartirish, uni qisqa bayon holiga aylantirish), tasniflash (mavzu, uslub va janr jihatidan o'zaro yaqin matnlarni guruhlash), matnni tahrir va tahlil qilish, matnni generatsiyalash (bir necha tabiiy tilga oid hujjatli matnlardan formula, texnik ishlanmalar, dasturiy tizimlarni yig'ish), matndan ma'lumoni olish, og'zaki nutqni kodli ma'lumotda berish va aksincha, yozma nutqni og'zaki nutqqa aylantirish, o'zga tillar lingvistik korpusini yaratish, ontologik lug'atlar bazasini [Abjalova M, 2020] shakllantira olish kabi yutuqlarga erishildi. Bu kabi amaliy ishlar ko'plab dasturiy ta'minotlarni yaratishga xizmat qildi. Shularning qatorida matnning unikalligini tekshiruvchi antiplagiat dasturiy ta'minoti alohida o'rin turadi. Antiplagiat – katta hajmdagi manbalar to'plamlari bo'yicha hujjatlardan noto'g'ri ko'chirib yozilgan o'rinlarni tezda qidirib topuvchi kompyuter texnologiyalari to'plami hisoblanib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- ✓ Aniqlilik va ishonchlilik – dastur plagiatni aniqlash uchun murakkab algoritmlardan foydalanadi va yuqori aniqlik va hamda ishonchli natijalarni ta'minlaydi.
- ✓ Ko'p tillilik – u ko'plab tillarni qo'llab-quvvatlaydi, bu ularni butun dunyo bo'ylab talabalar va tadqiqotchilar uchun foydali qiladi.



✓ Mashhur platformalar bilan integratsiya – ko‘rib chiqish jarayonini soddalashtirish uchun dasturiy ta‘minot mashhur kurslarni boshqacha tizimlari va elektron o‘quv platformalari bilan integratsiyalashi mumkin.

Ko‘plab antiplagiat dasturlari almashgan alifbolar, sahifalar, paragraflar, jummalarni almashtirish, so‘z tartibini o‘zgartirish, so‘z shakllaridan foydalanish, rasm, tasvir va formulalardagi aynanlikni ham topa oladi. Ammo juda ko‘p hollarda o‘z so‘zlari bilan qayta yozilgan matnlarni antiplagiat dasturlari aniqlash kuchiga ega emas. O‘z so‘zlari bilan qayta yozish odatda parafraz termini bilan qo‘llaniladi. Uning bir necha turlari bo‘lib, ularni quyida ko‘rib chiqamiz:

1. Sinonimlarni almashtirish (bunda gap tarkibidagi so‘zlar sinonimlari bilan almashtiriladi);
2. Gap tartibini o‘zgartirish (gap bo‘laklari joylashuvi o‘zgaradi);
3. Gap qismlarini o‘zgartirish (masalan: Galereyadagi rasm chiroyli edi= Galereyida chiroyli rasm namoyish etildi);
4. Gap strukturasini almashtirish (qo‘shma gaplarni soddaga o‘zgartirish);
5. Xulosalardan foydalanish (mavjud hukmni saqlagan holatda gap tuzish);
6. Gaplarni qo‘shish (mavjud ikki soda gapni qo‘shma gapga aylantirish);
7. Fe‘l nisbatini o‘zgartirish;
8. Tafsilotlarni qo‘shish yoki olib tashlash (mavjud fikrga qo‘shimcha ma‘lumot kiritib, matnni boyitish);
9. Turli so‘z shakllarida foydalanish (Muhandis yangi ko‘prikn loyihalashtirdi = Yangi ko‘prikn loyihasi muhandis tomonidan tayyorlandi);



10. Gap egasini almashtirish (Oshpaz mehmonlar uchun mazali taom tayyorladi = Mehmonlar oshpaz tomonidan tayyorlangan mazali taomdan zavqlanishdi) [<https://www.paraphraser.io/blog/types-of-paraphrasing>];

Yuqoridagi parafraz turlarining ayrimlarini antiplagiat dasturlari aniqlay oladi (sinonimlar, soʻz shakllari, gap tartibi). Ammo gap strukturasi oʻzgartirish orqali qilingan parafraz holatlarini aniqlash biroz muammoli holat boʻlib qolmoqda. Buni bartaraf etish uchun dastlab gap modellarini ishlab chiqish va parafrazning ehtimoliy holatlarini mavjud matnlarni oʻrganish yaʼni lingvistik tahlil orqali amalga oshirish zarur. Buning uchun dastlab gap turlari va ularning sinonimiyasini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Quyida gap turlarini bir-biriga sinonimlik holatini koʻrib chiqiladi:

1. Sodda gap va qoʻshma gap sinonimiyasi

Har qanday havola boʻlakli qoʻshma gaplarni sodda gapga aylantirish mumkin:

Ega ergash gap: *Kim maqsadi sari harakat qilsa, u albatta yetadi* = *Maqsadi sari harakatlangan inson, albatta, yetishadi.*

Toʻldiruvchi ergash gap: *Shuni sedan chiqarmasligimiz kerakki, tabassum qilgan inson hamma narsani yengib chiqadi* = *Tabassum qilgan inson hamma narsani yengib chiqishini sedan chiqarmasligimiz kerak.*

Kesim ergash gap - *Shunday ish qilingki, pushaymonlik keltirmasin* - *Pushaymonlik keltirmaydigan ish qiling.*

Aniqlovchi ergash gap – *Hech bir qiz yoʻqki, u sevgi haqida oʻylamagan boʻlsa* = *Dunyodagi hamma qiz sevgi haqida oʻylaydi* [Saparniyozova M, 2010].

2. Hol ergash gapning sodda gap bilan sinonimligi

Payt ergash gap - *Qachon soʻrasangiz, darrov javob beradi* = *Soʻragan narsangizga darrov javob beradi.*



Maqsad ergash gap – *Seni kelar deb kutib o‘tiribman = Seni kelishingni kutib o‘tiribman.*

Sabab ergash gap – *Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a‘zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar = Maktabimizda sport klubi faoliyat olib boryotgani uchun klub a‘zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar*

Ravish ergash gap - *Katta karvon qayerdan yursa kichik karvon ham shu yo‘ldan yuradi = Katta karvo yurgan yo‘lan kichik karvon ham yuradi*

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning sodda gap bilan sinonimligi:

To‘tr mashina o‘g‘it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin. = Yuborgan to‘rt mashina o‘g‘itimizni fermerlarga vaqtida taqsimlab berilsin.

4. Bog‘langan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan sinonimligi:

Soni ko‘p, lekin, salmog‘i yo‘q. = Soni ko‘p bo‘lgani bilan salmog‘i yo‘q.

5. Qo‘shma gaplarning o‘zaro sinonimiyasi

Uyushgan gap va uyishiq gap sinonimiyasi: uyushgan gapdagi umumiy bo‘lak [Pm]ni har bir shakllanmagan [W]ga alohida-alohida qo‘shish bilan osongina qo‘shma gap hosil qilish mumkin.

Chakkasi tirishib, ko‘zi qizarib ketdi (uyushgan gap) = Chakkasi tirishib ketdi va ko‘zi qizarib ketdi. (qo‘shma gap tarkibidagi uyushiq gap) [Sayfullayeva R va b, 2009]

6. Bog‘langan qo‘shma gap va bog‘lovchisiz qo‘shma gap sinonimiyasi

Sel na odamni ayadi, ne dov daraxtni tinch qo‘ydi = Sel odamni ayamadi, dov daraxtni tinch qo‘ymadi.

7. Bog‘langan va ergashgan qo‘shma gap sinonimiyasi



Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik = Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik va mo‘l hosil oldik.

8. Ko‘chirma gap va o‘zlashma gap sinonimoyasi

- Qizim, umring uzoq bo‘lsin, - dedi yo‘lovchi = Yo‘lovchi qizga umri uzoq bo‘lishini tiladi.

9. Nisbatlar sinonimiyasi

Majhul: Ov uchun kerakli narsalar to‘plandi

Birgalik: Ov uchun kerakli narsani to‘plashdi

Aniq: Ov uchun kerakli narsani to‘pladi

Orttirma: Ov uchun hamma narsani to‘plattirdi

Yuqoridagi gap strukturalaridagi sinonimlik holatlarini ko‘rib chiqish orqali shuni qayd etish mumkinki, parafrazning bu ko‘rinishini antiplagiat dasturlarining bazalariga ularning modellarini yaratib berish orqali yechim topish mumkin, ammo faqat buning o‘zigina aniqlashga yordam bermaydi. Gap strukturalari parafraz qilinganda uni boshqa parafraz turlari bilan bog‘lab murakkabroq matn yaratish mumkin bo‘lib, bunda so‘zlarni sinonimlariga almashtirish, so‘z birikmalarining turini o‘zgartirish uni murakkablashtiradi. Bunday holatda zipf qonuni [Uzoqova M, 2021] ham ma’lum darajada undagi plagiat holatini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, antiplagiat dasturlari asosan o‘zida mavjud bazalardagi ma’lumotlarni aniqlash, sinonimayzer yordamida almashtirilgan so‘zlarni, va ayrim parafraz holatlarini aniqlay olish kuchiga ega hisoblanadi. Ammo gap strukturalari almashganda esa bu holat qiyinlashadi. Bu shakldagi parafraz holatlarini bartaraf etish uchun gap modellari bazasini yaratish ularni antiplagiat dasturiga tanitish lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6
2. <https://www.paraphraser.io/blog/types-of-paraphrasing>
3. Karen Spark Jons. Natural language processing: a historical review. Computer Laboratory, University of Cambridge William Gates Building, JJ Thomson Avenue, Cambridge CB3 0FD, UK, 2001. – 2 p
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: FTM, 2009.
5. Saparniyozova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi o‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 112 b.
6. Uzoqova M.T. Sinonimayzer dasturi samaradorligini oshirishda Zipfa qonuni ahamiyati//o‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari/Xalqaro ilmiy-anjuman materiallari. T.: Nodirabegim, 2021. 107-110-betlar